

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISHDA HIKOYA QILISH METODINING AHAMYATI

Mirzoyeva Nigora

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Bahodirova Hilola Bekjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti

Urgut filiali talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda hikoya qilish metodning ahamiyati, bu metodning bolalar ta'limidagi o'rni, hikoya qilish turlari va usullar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: syujetli hikoya, tasvirli hikoya, aqliy tarbiya, jismoniy hikoya, interaktiv hikoya

Ta'lim-tarbiya jarayonida bir nechta metodlardan: hikoya, savolu javob, suhbat, rag'batlantirish, namuna keltirish va boshqalardan foydalanish mumkin. Ushbu metodlarning har biri bolalarning aqliy, psixologik, intellektual saloyiyatga ega bo'lib yetishida ahamiyatli hisoblanadi.

Hikoya og'zaki metodlardan biri hisoblanib, mashg'ulotni bolalar uchun tushunarli tarzda bayon etish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga hikoya metodidan foydalanib mashg'ulotlarni o'tkazish ularni aqliy rivojlantirish uchun samarali bo'ladi. Bolalar biz o'ylaganimizdan ko'proq xislatlarga va fazilatlariga ega bo'ladi. Biz kattalar ularni vaqtida rivojlantirishga yordam berishimiz zarur. Bunda biz hikoya qilib berish metodidan keng foydalanishimiz mumkin. Qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga avvalo biz o'rnak bo'lishimiz lozim, yani ularni tinglay olishimiz kerak, shundagina ular ham bizni tinglay boshlaydilar va natijada mazmunli suhbat payda bo'ladi. Suhbat bolalar narsa-hodisalar, voqealar to'g'risida ayrim bilim va tajribalarga ega bo'lgan holatda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida bolalarning mavjud bilimlari aniqlashadi, boyiydi, tizimlashtiriladi. Hikoya qilish metodi orqali biz bolalarni suhbatga chorlashamiz va ularga turli savollar bilan murojat etishimiz mumkin. Hikoya qilish metodida monologik matnni hikoya qilib berishga yordam beruvchi quyidagi savollar mavjud:

— birgalikda hikoya qilishga yo'nalliruvchi savol (iboradagi so'nggi so'zga qo'yilgan savol);

__aytib turuvchi savol;

— yo'naltiruvchi savol;

— to'g'ridan -to'g'ri savol;

__to'g'ridan-to'g'ri savollar zanjiri (reja);

— qidiruv savollari;

— ko‘rsatma savollari;[1]

Ushbu savollarni berish orqali biz bolalarni aqliy salohiyatini oshirishimiz, nutqini rivojlantirishimiz mumkin. Bunday savollarni bergandan keyin tarbiyachi quyidagilarga ahamiyat berishi lozim.

- javob berayotgan paytda bolani to‘xtatmasligi, unga xalaqit bermasligi kerak;
- savoldan keyin bolalar uchun o‘zi javob bermasligi va bolani oxirigacha tinglashi lozim;
- eshitilgan ma‘lumotni darhol rad etmasligi kerak;
- o‘rni kelganda qo‘llab-quvvatlovchi so‘zlar aytish: “Tushunarli”, “qiziq ekan” kabi so‘zlarni aytib, diqqat bilan tinglash;

Bolalar uchun asosan ularga tanish mavzular bo‘yicha hikoyalar qilish ancha samarali bo‘ladi. Chunki ular ko‘rib idrok qilib yurgan voqealarni ancha yaxshi tassavur qila oladi va hikoya qilish jarayonida o‘z hikoyasiga voqelikdagi taassurotlarini qo‘shadi. Bunday hikoya qilish jarayonida bolalarni ham aqli ham nutqi shakllanadi. Masalan ularga tanish quydagi mavzularda hikoyalar qilishimiz mumkin, “Mening bog‘cham”, “Mening sevimli o‘yincho‘im” kabi mavzularda hikoyalar aytish bolalardagi tanish holatlar bo‘lishi mumkin va ular tasavvur qilishlari oson bo‘ladi. Bundan tashqari halollik, mardlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, kattalarga hurmat kabi tarbiyaviy axloqiy ahamiyatga ega mavzulrdagi hikoyalar bolalarda insoniy fazilatlarni shakl toptirishda yordam beradi.

Maaktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanayotganini tekshirish uchun tarbiyachi tomonidan mashg‘ulot mavzusidan kelib chiqqan holda hikoya qilinadi. Misol uchun “Oltin kuz” mavzusidagi hikoya qilgan tarbiyachi boladan bu hikoyani qayta hikoya qilishini so‘raydi. Qayta hikoya qilganda tarbiyachi bolaning aqliy salohiyati kengayib borayotganini bilish uchun uning quydagi jihatlariga e‘tibor berishi lozim:

- Bola hikoyaning qaysi qismini ko‘proq eslab qolishiga (ya‘ni qaysi qismida diqqati joyida bo‘lgan);
- bola hikoyaga o‘z nutqidan yangi jumlar kiritishiga;
- bola hikoyani qayta hikoya qilganda unda yangicha savollar paydo bo‘lishiga;

Agarda bola hikoyaning deyarli barcha qismini yaxshi eslab qolgan bo‘lsa u o‘zining yoshiga mos holatda aqli ham rivojlanib bormoqda. Bola hikoya qilishda nutqida yangi jumladan foydalansa uning nutqi ham yaxshi rivojlanayotganini bildiradi. Hikoyani o‘zi taassurotlari bilan hikoya qilganda unda yangicha savollar paydo bo‘lsa fikrlash doirasi kengayayotgan bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni hikoya metodi bilan yana qiziqarli tashkil etish mumkin. Hikoya qilish ikki turga ajratilgan:

- *Syujetli hikoya*
- *Tasviriy hikoya*

Tasviriy hikoya - bu biror predmet yoki voqeaning o'ziga xos tomonlarini bayon etishdir. **Syujetli hikoya** – bu asosan voqea yoki hodisa markazida joylashgan asosiy mavzu yoki g'oya. Syujet hikoyaning rivojlanishini, uning asosiy voqealarini va qahramonlarning o'zgarishini ko'rsatadi [2].

Hikoya qilish turlari orqali bolalarni hikoyaga bo'lgan mehrini qanchalik yuksaltirsak, hikoya qilish usullari orqali esa ularni aqliy rivojlantirishimiz va hikoya qilishga qiziqarli va zeriktirmasdan o'rgatishimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hikoya qilish usullarini ikkiga ajratamiz bular:

- *jismoniy hikoya qilish*
- *interaktiv hikoya qilish*

Jismoniy hikoya qilish usuli (yoki "jismoniy teatri" deb ataladi) hikoya qilishning bir turidir, unda fikrlar va tuyg'ular maxsus jismoniy harakatlar, yuz ifodalari, tana tilidan foydalangan holda ifodalanadi. Bu usulda so'zlardan kamroq foydalaniladi yoki umuman foydalanilmaydi. Asosan teatrda, raqsda, pantomimikada yoki boshqa san'at shakllarida qo'llaniladi.

Interaktiv hikoya qilish — bu o'quvchi yoki tinglovchi bilan faol muloqot o'rnatishga asoslangan hikoya qilish usuli hisoblanadi. Bunda hikoya davomida o'quvchi yoki tinglovchi ba'zi qarorlar qabul qiladi, natijada hikoyaning rivojlanishi yoki oxiri ozgarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarova V., Raxmonqulova Z. «Bolajon» tayanch dasturi bo'yicha adabiyot to'plami. –T.: «Bekinmachoq-plyus», 2012.
2. Mirjalilova S.S, Grosheva I.V, Nishanova M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik kutubxona yaratish, uning faoliyatini tashkil etish va bolalar badiiy adabiyotidan samarali foydalanish bo'yicha yo'riqnoma. / O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish respublika o'quv-metodika Markazida tashkil etilgan Ilmiy-metodik kengashning 2017 yil 25 yanvardagi navbatdan tashqari 1-sonli bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan.
3. Tafakkur gulshani. Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so'zlari. / V.Vorontsov kompozitsiyasi. Tarj. Sh.Abdurazzoqova. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1989.
4. Qayumova. N. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent 2013.